

QORAXONIYLAR DAVLATINING TARIXIY GEOGRAFIYASIGA TAVSIF

Yuldosheva Bibirajab

Buxoro davlat universiteti dotsenti, t.f.f.d (PhD),

Dilmurotova Parizoda

Buxoro davlat universiteti tarix ta'lim yo'nalishi talabasi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Qoraxoniylar davlatining tashkil topish jarayoni, uning siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotidagi o'ziga xos jihatlar, shuningdek, davlatning tarixiy geografiyasi ilmiy asosda yoritilgan. Unda Qoraxoniylar sulolasining kelib chiqishi, ularning Movarounnahr va Yettisuv hududlarida hokimiyatni o'rnatish jarayonlari, markazlashgan davlat barpo etishdagi siyosiy faoliyati tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: *Qoraxoniylar davlati, Movarounnahr, Yettisuv, tarixiy geografiya, siyosiy markaz, davlat boshqaruvi, sulola.*

ABSTRACT

This article provides a scientific overview of the process of the formation of the Karakhanid state, its specific aspects of political, economic and cultural life, as well as the historical geography of the state. It analyzes the origin of the Karakhanid dynasty, the processes of their establishment of power in the regions of Movarounnahr and Yettisuv, and their political activities in the establishment of a centralized state.

Keywords: *Karakhanid state, Movarounnahr, Yettisuv, historical geography, political center, state administration, dynasty.*

KIRISH

O'tmishda diyorimiz tuprog'ida juda ko'p davlatlar yuzaga kelgan, taraqqiy etgan va vaqti kelib o'z o'rnini boshqa sulolaga bo'shatib bergan. Qadimda vujudga kelgan har bir davlat o'z o'rniga ega. Shu davlatlar qatorida Qoraxoniylar davlatini o'rganamiz. Ma'lumki, O'zbekiston tarixining salmoqli bir qismini, ya'ni 372 yilga yaqin davrini Qoraxoniylar xoqonligi (840 - 1212) tarixi tashkil etadi. (Qoraxoniylar birinchi turkiy - islomiy davlatlardan biri. Qoraxoniylar, xoniylar, xoqoniylar – Qoraxoniylar davlatini boshqargan xoqonlar sulolasi. Qoraxoniylar davlatining barpo etilishida qarluq, chig'il, yag'mo qabilalari yetakchi rol o'ynagan. Bunga ko'ra, qarluq va chig'il qabilalarining totemi, ya'ni ramzi arslon bo'lsa, yag'mo qabilasining ramzi bug'ro (qo'sh o'rkachli tuya) bo'lgan. Sanab o'tilgan qabilalar xususida hikoya qiluvchi muhim manbalardan biri - Gardiziy (XI asr) ning "Zayn ul - axbor" asari bo'lib, ushbu asarda Yevrosiyo hududlarida yashovchi bir qancha turkiy xalqlar va

qabilalarni qayd etish bilan birga, qarluq, chig'il, yag'mo va boshqa qabilalar ham tilga olingan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Qoraxoniylar iborasi shartli ravishda sulola nomi sifatida qo'llanilib, davlat hukmdorlari "qoraxon" – buyuk xon unvoni bilan yuritilgan. Shu bois sharqshunos olim V. V. Grigorev sulolaga "Qoraxoniylar" deb nom bergan va u ilmiy adabiyotlarda mustahkam o'rnashib qolgan. Albatta, bu ma'lumotlar bizni Qoraxoniylar davlati tarkibidagi qabilalarni etnik tarkibi borasidagi tasavvurlarimizni boyitishga xizmat qiladi. Qoraxoniylar nomi ilk bor rus tarixchisi Vasiliy Grigorev tomonidan 1874 - yilda nashr etilgan "Qoraxoniylar Movarounnahrda tarixi. Munajjim boshi tomonidan usmonli matnida tarjima va eslatmalar bilan" nomli risolasida qo'llanilgan. Qoraxoniylar o'z zamonida "Mamlakati Turk", "Zamini Turon", "Xoqoni Turkiston", "Malikai Turkiston", "Oli Elxoniya", "Al - Xoqon at - Turk Oli Afrosiyob", "Xoniyat al - Atrak", "Xoqoniya" kabi nomlar bilan yuritilgan.

X asrning ikkinchi yarmiga kelib ichki ziddiyatlarning kuchayishi va keskinlashuvi natijasida Somoniylar davlati kuchsizlana boshlaydi [2, 97-b]. Somoniylarga tobe bo'lgan viloyatlar, ayniqsa, Xurosonda ular hokimiyatiga qarshi ko'tarilgan isyonlar, toj - u tax tuchun uzluksiz olib borilgan kurashlar Somoniylar davlati inqirozini yaqinlashtirgan edi. Bunday vaziyatdan Yettisuv va Qoshg'arda yashovchi turkiy qabilalar unumli foydalandilar. Chunki X asrning ikkinchi yarmiga kelib bu hududlardagi turkiy qabilalar - qarluqlar, chig'illar, yag'molar va boshqalar o'zlarining kuchli davlatlarini tuzishga muvaffaq bo'lgan edilar. Tadqiqotchilar Qoraxoniylar sulolasi tarixini shartli tarzda to'rt davrga bo'ladilar:

- 1) sulolaning shakllanish davri (milodiy 840 - 960 yillar);
- 2) sulolaning siyosiy jihatdan yuksalish davri (960 - 1041 yillar);
- 3) sulolaning iqtisodiy va madaniy jihatdan eng gullagan davri (1041 - 1130 yillar);
- 4) sulolaning siyosiy jihatdan tanazzulga yuz tutish davri (1130 - 1141 - 1212 yillar) [6. 46 – b].

Milodiy 878 - yili yag'mo qabilasi sardori Bilga Kul Qodirxon Bolosog'un shahrini ishg'ol qilib, Qarluq xonligini tugatgan va yangi sulolaga asos solgan. U katta o'g'li Bazir Tedinga "Arslonxon" degan nom berib, Bolosog'un shahrini boshqarishga, kichik o'g'li O'g'ulchoq tedinga "Bug'raxo" degan nom berib, Talas shahrini boshqarishga qo'ygan. Abdulkarim Sotuq Bug'raxon hukmronligi davri Qoraxoniylar tarixida alohida o'rin tutadi. Rivoyatlarga qaraganda, Sotuq Bug'roxonning otasi vafot etganidan so'ng taxt vaqtincha uning amakisi (otasining ukasi)ga qoldirilgan edi.

Saroydagi kelishuvga binoan Sotuq Bug'roxon ulg'ayganidan keyin amakisi taxtni unga berishi lozim edi. Ammo amalda bunday bo'lmadi. Amakidan taxtni kuch bilan tortib olish yagona yo'l bo'lib qoldi. Zarur kuchni to'plash maqsadida Sotuq Bug'roxon maxfiy holda islom diniga o'tib, unga e'tiqod qilganlarning himoyasiga ega bo'ldi. Bir qorong'u kechada endi 16 yoshga to'lgan Sotuq Bug'roxon 40 nafar yaqinlari yordamida o'rdaga hujum qilib kirib, amakisini va uning hamdamlarini o'ldirdi va xonlik taxtni o'zi egalladi [2, 97-100-b]. XXR olimlarining fikricha, Sotuq Bug'roxonning hayotida amalga oshirilgan barcha ishlar islom dinini qabul qilish, uni targ'ib etish va mustahkamlash bilan bog'liq bo'lgan. Sotuq Bug'roxon islom dinini bevosita o'zi hukmronlik qilgan Qashqar va Oqsuv viloyatlardagina emas, balki qoraxoniylar qo'shinining qadami yetgan hamma yerlarda, jumladan Yettisuv, Balqash ko'li bo'yi va Jungg'or tekisligi kabi joylarda yashovchilarga ham singdirgan. Uning vafoti (955/956)dan so'ng hokimiyat o'g'li Musoga o'tdi.

Muso davrida 960 - yili 200 ming chodirlik turkiy aholi islom dinini qabul qilgan. Qoraxoniylar hukmronligi davri o'zaro hokimiyat uchun kurashlar doimiy asnoda bo'lib turganligi bilan izohlanadi. Mazkur kurashlar asosan Ali Arslonxon va Xorun Bug'roxon avlodlari o'rtasida bo'lgan. Shu bois Alilar xonadoni va Xoruniylar xonadoni degan atama shu davrga nisbatan ishlatiladi. Ular tez orada Farg'ona va Isfijob (Sayram) ni bosib olishga erishishadi. Manbalarning ma'lumot berishicha, Somoniylar davlatida katta ta'sirga ega bo'lgan turkiy lashkarboshi, Xuroson hokimi Abu Ali Simjuriy va yana bir lashkarboshi Balx hokimi Foyiq ochiqdan ochiq qoraxoniylarga yon bosishadi [3, 360-369-b]. Simjuriy Xorun Bug'roxon bilan muzokaralar olib brogan bo'lsa, Foyiq Raboti Malik yaqinidagi Bug'raxonga qarshi jangda, har tomonlama ustunlikka ega bo'lishiga qaramay, unga Taslim bo'ladi. Xorun Bug'roxon Samarqand va Buxoroni 992 - 993 - yillarda egallagach, kasalligi tufayli urushni davom ettira olmaydi. U 993 - yili Koshg'arga qaytishdagi Qo'chqorboshi degan joyda vafot etadi. Shu tariqa voqealar rivoji davom etadi. 999 - yilda Buxoro Nasr Ilekxon tomonidan egallanadi.

1005 - yilga qadar Somoniylar va Qoraxoniylar o'rtasida ko'plab urushlar bo'lib o'tdi va o'sha yili so'nggi Somoniy Abu Ibrohim Ismoil Muntasirning Buxoroni ozod etishdagi harakatlari muvaffaqiyatsiz yakunlanadi va Somoniylar siyosiy tarix sahnasidan tushib ketdilar. Xullas, XI asr boshlarida Qoraxoniylar davlati Amudaryoning yuqori va o'rta oqimlaridan to Yettisuv, sharqda esa Torim daryosigacha bo'lgan hududlarni o'z ichiga olgan edi. Ayrim olimlarning fikricha, shu vaqtdan boshlab Qoraxoniylar Buxoro, Samarqand va umuman, Amudaryogacha bo'lgan hududlarni ham boshqarganlar. Siyosiy jihatdan olib qaraganda, XI asr boshlarida Turkiston bir qancha siyosiy kuchlar tomonidan idora etilgan. Sharqiy

Turkiston, Toshkent, Isfijob, Farg'ona, Samarqand, Buxoro, Chag'aniyon, Xuttalon viloyatlari Qoraxoniylar, Amudaryoning chap qirg'oq yerlari to G'aznagacha, Xuroson, Seyiston viloyatlari G'aznaviylar, Xorazm esa Xorazmshohlar, Orol dengizidan sharq va shimoldagi yerlar o'g'izlar ittifoqi tomonidan boshqarilar edi.

Qoraxoniylarning Movarounnahrda hukmronligi 200 yilga yaqin davom etadi. Somoniylarga tegishli bo'lgan yerlarni egallash jarayonida turkiylar yirik Qoraxoniylar davlatini barpo etishadi. Qoraxoniylar udel tizimiga asoslangan davlat hisoblanib, g'arbiy va sharqiy qismlarga ham bo'lingan. Ma'lum vaqt o'tgandan keyin Movarounnahrda yangi ko'chmanchi qabilalar qoraxitoylar (kidanlar) hujumi xavfi paydo bo'ladi. XII asrning 30 - yillarida qoraxitoylar sharqiy Qoraxoniylar hududini bosib oladi. 1137 - yildagi Xo'jand yaqinida bo'lgan jangda qoraxitoylar qo'shini qoraxoniylar Mahmudxon qo'shinlarini tor - mor etadi. Oradan ko'p o'tmay, 1141 - yilda qoraxitoylar yana Movarounnahrda bostirib kiradi. Ularning hujumini to'xtatish uchun Sulton Sanjar katta qo'shin bilan yetib keladi. Bu safar jang Samarqand yaqinidagi Qatvon cho'lida bo'ladi. Hal qiluvchi jangda qoraxitoylar g'olib bo'ladi. Qoraxoniylar endi qoraxitoylarga qaram bo'lib, har yili ularning poytaxti Bolasog'unga katta o'lpon yuborib turishgan. Xorazmshohlar 1210 - yili qoraxitoylarni mag'lub etishgach, qoraxoniylar xorazmshohlarga qaram bo'lib qolishadi. Sulolaning oxirgi vakili Usmonxon Muhammad Xorazmshohning qizi Xon Sultonga uylanadi. 1212 - yilda Samarqandda Xorazmshohlar hukmronligiga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olonga ham aynan Usmonxon boshchilik qiladi. Qo'zg'olon bostirilgach, Usmonxon qatl etiladi va qoraxoniylar xonadoniga mansub barcha kishilar o'ldiriladi. Shu tariqa Qoraxoniylar sulolasiga barham beriladi.

Cherchen daryosidan Xorazmgacha bo'lgan hudud siyosiy markazi oldiniga Bolosog'un va so'ng Koshg'ar bo'lgan. Garchi ko'p jihatlardan Samarqand va Buxoro taraqqiyotida Bolosog'un va Koshg'ardan ancha yuqori bo'lsa - da, xuddi shu davrdagi siyosiy vaziyatga ko'ra, boshqaruv markazi mintaqaning Yettisuv, Sharqiy Turkiston qismiga ko'chib qogandi. Ana shu " tabiiy" sabablarga ko'ra, an'anaviy ravishda qadimdan markaz rolini o'tab kelgan Buxoro va Samarqand endigi siyosiy mavqeyiga ko'ra viloyat (mulk) darajasiga tushib qolishiga to'g'ri kelgan. Ikkinchi tomondan, somoniylar davrida ham bir qancha viloyatlar (masalan, Xorazm, Seyiston, G'azni, Chag'aniyon va boshqalar) markazdan farqli o'laroq mustaqil siyosat yurgizishga harakat qilganlari ham ma'lum. Demak, somoniylar davridan keyingi siyosiy - jo'g'rofiy o'zgarishlarga sabab bo'lgan qoraxoniylar hukmronlik va boshqaruv tizimida shu o'zgarishlarga yarasha ba'zi yangiliklar bo'lishi tabiiy edi. Ammo yuqorida ta'kidlanganidek, boshqaruv tizimining shakli siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy omillar bilan bog'liq bo'lgani uchun ham qoraxoniylar davrida

somoniylar vaqtida mavjud bo'lgan boshqaruv tizimining asosiy mazmuni saqlanib qolgan. Aslida boshqacha bo'lishi ham mumkin emasdi. Chunki avvaldan shakllanib kelgan va obyektiv taraqqiyot natijasi o'laroq yuzaga kelgan boshqaruv an'alaridan qoraxoniylar yuz o'girolmasdi.

Qoraxoniylar sulolasi o'z hukmronligi davrida mulklarining sarhadlarini bir necha marta o'zgartirganlar. Movarounnahrni egallaguniga qadar uning mulklari Tyanshan va uning atroflaridagi hududlar bo'lsa, XI asr boshlariga kelib esa xoqonlik chegaralari Amudaryogacha yetgan [4, 290-b]. Qoraxoniylar davlati boshlig'i lavozimi, xoqonning taxti merosiy sanalgan. Markazdagi boshqaruv tizimi ikki idora: dargoh va devonlardan iborat bo'lgan. Oliy hukmdor o'ziga tobe bo'lgan viloyat va shaharlarga hukmdor sulola namoyondalarini tayinlab, bu bilan, tabiiy ravishda, butun mamlakat uzra o'z siyosatini yurgizishni maqsad qilib qo'ygan. G'arbiy xoqonlikda (Samarqand, Buxoro, Xuttalon, Chag'oniyon) somoniylar davrida mavjud bo'lgan boshqaruv tizimi (bosh vazir, moliya ishlari, davlat rasmiy hujjatlarini ishlab chiqish, soqchilar boshlig'i, xat-xabarlar, saroy ish boshqaruvchisi, muhtasib, vaqflar, qozilik ishlari devonlari) saqlanib qolgani ma'lum. Qoraxoniylarda Qoshg'ar va Bolasog'un poytaxt sanalib, ulug' xon shu shaharlardan birida qarorgohda o'tirgan [4. 291 – b]. Ulug' xoqon yoki ulug' xon “ul - xoqon” degan nomad yuritilgan. Arab manbalarida mazkur unvon “sulton ul - salotin”, fors tarix asarlarida shahanshohga muvofiq keladi [7. 180-b]. Aynan yuqoridagi oliy unvon qoraxoniylar davri kitoblarida “tamg'ochxon” deb ham yuritilgan. Qoraxoniylarga qarashli yerlar tamg'ochxon tomonidan uning o'g'illari, qarindoshlari o'rtasida taqsimlangan edi. Shu bois yer - mulk masalasida ota - o'g'il, amaki, jiyanlar hamda aka - ukayu amakivachchalar o'rtasida doimiy nizolar yuz berib, u siyosiy ahvolga salbiy ta'sir ko'rsatib turgan.

Qoraxoniylar va saljuqiylar tarixining bilimdoni, XIII asr boshlarida yashagan rab tarixchisi Ibn al Asir 1043- 1044 - yillarga aloqador qimmatli misollarni keltiradi [8. 186–b]. Bu davrda qoraxoniylar davlatini boshqargan tomg'achxon Sharaffuddavla o'ziga qarashli viloyatlarning hammasini aka - ukalari, o'g'illari va qarindosh - urug'lariga bo'lib bergan. Jumladan, ukase Arslontakinga ko'pchilik turk shaharlarini, ikkinchi ukasi Bo'g'raxonga Torozni, Isfijobni amakisi To'g'onxonga Farg'onaning hammasini bergan. O'ziga esa faqat Qashg'ar bilan Bolosog'unni qoldirgan, xolos. Shuningdek, viloyat boshliqlarini hokim, shahar boshlig'ini rais deb atash rasmi ham o'zgarmagan. Xoqonning ulug' hojibi xoqon bilan fuqaro o'rtasida vositachilik qilgan. Xoqon saroyida quyidagi amaldorlar bo'lgan: ag'ichi - shoyi kiyimlar xazinachisi; biruk - mehmonlarni qabul qilish bo'yicha mutasaddi; oshchi - xoqon oshxonasi boshlig'i; bitikchi - munshiy; kotib - mirza; qushchi - xoqon ovining

tashkilotchisi. Davlat boshqaruvida juda ko'p nufuzli mansab egalari ish olib borishgan.

Ular ichida eng nufuzli darajaga erishgan mansabdor bu - yug'rush bo'lgan. U vazirlik darajasidagi kishi hisoblangan. Bunday lavozimga aql - zakovatli, sinalgan va ko'pincha Yoshi ulug' kishilar saylangan. Xoqonlikda yana bir katta lavozim bu - qapug'boshi bo'lgan. Mahmud Koshg'ariy "qapug" atamasini eshik ma'nosida kelishini aytib o'tgan. Demak, qapug'boshi bizning tushunchamizdagi eshik og'asi degan ma'noni anglatar ekan. Dargohda Biruk nomli mansabdor ham faoliyat ko'rsatgan. Mahmud Koshg'ariy unga "shoh yonida kattalarni o'z joyiga o'tkazuvchi kishi", deb izoh bergan. Biruk saroydagi mehmonlarni qabul qilish, ularga kerakli xizmatlarni tashkil etish va ularni hukmdor oldida tartib bilan o'z o'rniga o'tkazish kabi vazifalarni bajargan. Xoqonlikda ag'ichi nomli lavozim egasi ham mavjud bo'lgan. Mahmud Koshg'ariy uni "ipak kiyimlarni saqlovchi xazinachi", deb qayd etgan. Haqiqatan ham "ag'i" so'zi ipak kiyimni anglatgan. Bir vaqtning o'zida mintaqada bir necha o'ziga yarasha qudratli siyosiy kuchlarning faoliyat ko'rsatishi va bundan tashqari, qoraxoniylar sulolasidagi ichki kelishmovchiliklar dargohning tashqi ishlar masalasiga jiddiylik bilan qarashiga sabab bo'lgan. Tashqi siyosat bilan shug'ullanuvchi mansabdorlarga, xususan, elchilar oldiga juda katta talablar qo'yilgan, ya'ni ular "bilimli, uquvli, yetuk, sheryurak, ko'zi to'q, uyat - andishali" (Yusuf Xos Hojib, "Qutadg'u bilig") bo'lishlari kerak bo'lgan.

Qoraxoniylar davlatining dastlabki davrida ipak va ipak kiyimlar nihoyatda qimmatbaho mahsulot bo'lib, sarpolar, sovg'alar hukmdor xazinasidan berilgan. Qoraxoniylar davlatida hunarmandchilik (kulolchilik, to'quvchilik, shishasozlik, temirchilik, zargarlik) shuningdek, ziroat va chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlovchi sohalar taraqqiy etgan. Shuningdek bu davrda xo'jalikda dehqonchilik ishlari o'z maromida kechgan. Bunga, albatta, sun'iy sug'orish tizimlarining talab darajasida ishlab turishi, lozim bo'lganda, ularni ta'mirlash ishlarining amalga oshirilishi, yer osti, yer usti quvurlarining o'tkazilishi, ariqlar, suv omborlarining bunyod etilishi hamda o'lkada ayniqsa, Buxoro, Samarqand, Farg'ona, Toshkent viloyatlarida dehqonchilik an'anaviy yuqori darajada bo'lgani tufayli erishilgan. Ilgaridagidek dehqonchilikning barcha asosiy turlari yetishtirib borilgani ham ma'lum. Shuningdek, konchilik ham rivojlanib qimmatbaho toshlar, oltin, mis, temir qazib olingan. Shaharsozlik inshootlari pishiq g'ishtdan qurilgan. Xoqon, vaqf, jamoa mulklari qoraxoniylar tasarrufidagi asosiy yer - mulklar hisoblanadi. Chunonchi, Ohangaron atrofida (Qoramozor) mis, kumush, qo'rg'oshin konlari, Farg'onada oltin, simob, kumush, temir, mis, firuza, navshadil, neft, kuporos, qatron, Nurota tog'larida oltin, mis, qo'rg'oshin, simob, marmar, Buxoro, Ustrushonada oltin, neft, firuza,

temir konlari ishlab turgan. Dehqonchilik, hunarmandchilikning bir tekis rivojlanishi savdo - sotiq ishlarini jadallashtirib borishda muhim ahamiyat kasb etgan. Aholini to'rtta toifasi: boylar, o'rtahollar, chig'aylar (kambag'allar), shuningdek, mulksizlar - qora avom (budun) aniq belgilar kasb etadi. Chorikorlar sifatida feodallar yerlarida ishlagan yersiz va kam yerli dehqonlar - "akkarlar" o'troq dehqonlar ommasini tashkil etardi [8. 187-b]. Akkar yerni ijaraga olganda hosilning bir qismini davlatga, boshqa qismini yer egasiga berishi, qolganini o'zi olishi kerak edi. Qoraxoniylar davriga kelib Sharqiy Turkistondan Xorazmgacha bo'lgan katta hududning siyosiy jihatdan birlashishi savdo - sotiq ishlarida mintaqaning sharqiy viloyatlari imkoniyatlarini yuzaga chiqarish sharoitini yaratib berdi.

Chunonchi, biz bugun "Ipak yo'li" deb biladigan savdo yo'li to'g'ridan - to'g'ri Sharqiy Turkistonni arab o'lkalari bilan tutashtirib turgan. O'z davrida shimoliy va janubiy yo'nalishlarga ega bo'lgan bu yo'lning bir uchi Xitoydan boshlanib Sharqiy Turkiston, Farg'ona, Toshkent, Zarafshon vohasi, Buxoro orqali shimolda Volga bo'ylari vositasida Sharqiy Yevropaga, janubda esa O'rta Sharq orqali O'rta dengizgacha borgan. Yo'l uzra joylashgan shahar va qishloqlarda bozorlar, karvonsaroylar ta'mirligi va orastaligi, umuman, savdogarlarga xizmat ko'rsatib, shu orqali foyda ko'riladigan turli xizmatlarni muhayyo etishga katta e'tibor berilgan. Muntazam ravishda turli yerlarda savdo ko'rgazmalari uyushtirilib turilgani haqida ham ma'lumotlar bor. Turonda ishlab chiqarilgan matolarning Skandinaviya qo'rg'o'nlariida topilishi somoniylar davridagi savdo - sotiq aloqalari mavsumiy emas, uzluksiz va jiddiy bo'lganidan dalolatdir.

Xitoy manbalarida qoraxoniylar qo'l ostidagi yurtlardan olib kelingan tovarlar ro'yxati keltiriladi. Ular orasida mahalliy hamda boshqa yurtlardan keltirilgan ot, tuya, mo'yna va teri mahsulotlari, turli - tuman matolar, qimmatbaho toshlar hamda noyob ziravor va ma'danlar bo'lgan. Xalqaro savdoda qaysi mahsulotlarga ehtiyoj sezilsa, shu yo'nalishda ish olib borilgan.

Qoraxoniylar davridagi qurilish ishlariga nazar tashlansa, shu narsa ayon bo'ladiki, Buxoroda Minorai kalon, bir qator masjidlar, Jarqo'rg'on (Surxondaryo) va Vobkentda minoralar, O'zgandda maqbaralar, minora, masjidlar, Samarqandda madrasalar bunyod etilgan.

Qoraxoniy hukmdorlar savob ishlardan ham qochmaganlari haqida ma'lumotlar bor. Chunonchi, qoraxoniy Ibrohim ibn Nasr 1066 - yili Samarqanddagi bir shifoxona ixtiyoriga butun imoratlari, rastalari bilan ikki karvonsaroyini taqdim (vaqf) etgan. Ana shu ikki karvonsaroydan keladigan daromaddan kasallarning oziq - ovqati, dori - darmoni, tabiblar, barcha turdagi xizmat ko'rsatuvchilarni tegishli maosh bilan ta'minlash yo'lida foydalanilgan. Samarqandda bunyod etilgan madrasa majmuyini

ta'minlash uchun Ibrohim ibn Nasr uch mehmonxona, bir karvonsaroy, bir erkaklar hammomi, suv ayirgich, uzumzor, bir qancha ekin yerlari va boshqalardan keladigan daromadni vaqf qilib bergani haqida ma'lumotlar mavjud.

XULOSA

Qoraxoniylar davlati Markaziy Osiyo tarixida muhim o'rin tutgan ilk musulmon turkiy sulolalardan biridir. Ularning vujudga kelishi natijasida turkiy xalqlar siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan mustaqil taraqqiyot yo'liga chiqdi. Qoraxoniylar davrida shaharsozlik, hunarmandchilik, savdo - sotiq va ilm - fan ravnaq topdi, islom dini keng yoyildi. Davlatning tarixiy geografiyasi Farg'ona, Qashg'ar, Balasog'un, Buxoro va Samarqand kabi yirik markazlarni o'z ichiga olgan bo'lib, bu hududlar o'sha davrda Sharq sivilizatsiyasining muhim markazlariga aylangan. Shunday qilib, Qoraxoniylar davlati nafaqat siyosiy birlikni ta'minlagan, balki keying asrlardagi turkiy davlatlarning shakllanishiga asos bo'lgan tarixiy meros qoldirgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Xodjayev A., Turdieva D. *Qoraxoniylar xoqonligi tarixi Xitoy Xalq Respublikasi tadqiqotlarida*. Fan ziyosi. Toshkent, 2021, 3-bet.
2. Zamonov A., Abdusodiqov S. *O'zbekiston tarixi*. II-qism. Toshkent, 2024, 97–100-betlar.
3. Sagdullayev A.S. *O'zbekiston tarixi*. I kitob. Toshkent: Donishmand ziyosi, 2021, 360–369-betlar.
4. Eshov B.J., Odilov A.A. *O'zbekiston tarixi*. 1-jild. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2014, 288–291-betlar.
5. Maxmudov B.X. *Qoraxoniylar davlatchilik tizimining xususiyatlari*. Toshkent, 2010, 9-bet.
6. Nosir Muhammad. *Turon davlatlari va hukmdorlari yilnomasi*. Toshkent, 2011, 45–46-betlar.
7. Murtazoyeva R.H. *O'zbekiston tarixi*. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2003, 180-bet.
8. Shamsutdinov R., Karimov Sh. *O'zbekiston tarixi*. Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa AK, 2010, 178–189-betlar.
9. Mirjonovna, Y. B. (2021). Question About the Environment: Has the Historian Studied the Environmental Problem?. *Academicia Globe*, 2(01), 10-17.
10. Mirjonovna, Y. B. (2021). The influence of arab caliphate on formation of bukhara urban culture.
11. Yuldosheva, B., & Latipov, M. Z. O. G. L. (2025). 1920–1924-YILLARDA XORAZM XALQ SOVET RESPUBLIKASIDA YER-SUV ISLOHOTLARI VA ULARNING IQTISODIY TA'SIRI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 5(4), 344-354.